INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

AYOLLAR VA VOYAGA YETMAGANLARGA NISBATAN ZO‘RAVONLIKNING ZAMONAVIY SHAKLLARI: STALKING HAMDA ONLAYN GRUMINGGA QARSHI KURASHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI

Alijonova Nigora Toxirjon qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti, Jinoyat qonunchiligini qo‘llash nazariyasi va amaliyoti yo‘nalishi magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ayollar va voyaga yetmaganlarga nisbatan zo‘ravonlikning zamonaviy shakllari – stalking (noqonuniy ta’qib) hamda onlayn gruming hodisalarining huquqiy tavsifi, tarqalish tendensiyalari va ularga qarshi kurashning huquqiy mexanizmlari qiyosiy tahlil qilinadi. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 3-martdagi PF-33-son Farmonida stalking, kiberstalking va onlayn gruming uchun jinoiy javobgarlikni belgilash zarurligi ko‘rsatilganligi va shu munosabat bilan milliy qonunchilikni takomillashtirish masalasi ilmiy-huquqiy jihatdan asoslab berilgan. AQSh, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Kanada va Yevropa Ittifoqi davlatlarining qonunchilik tajribasi hamda sud amaliyoti o‘rganilgan holda stalkingni va onlayn grumingni mustaqil jinoiy tarkib sifatida tartibga olishning optimal modellari taklif etilgan. Istanbul konvensiyasining 34-moddasi va BMT Bosh kotibining 2024-yilgi hisoboti asosida xalqaro standartlar milliy huquq tizimiga implementatsiya qilish yo‘nalishlari belgilab berilgan. Maqola yakunida Jinoyat kodeksiga stalking va onlayn grumingni mustaqil jinoiy tarkib sifatida kiritish, raqamli dalillar standartlarini ishlab chiqish hamda tezkor himoya orderlari tizimini takomillashtirish borasida kompleks taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: stalking, kiberstalking, onlayn gruming, zo‘ravonlikning zamonaviy shakllari, jinoiy javobgarlik, voyaga yetmaganlar, raqamli muhit, Istanbul konvensiyasi, texnologiya orqali zo‘ravonlik, jinoiy tarkib, mens rea, actus reus, jabrlanuvchini himoya qilish, xalqaro standartlar, huquqiy bo‘shliqlar.

СОВРЕМЕННЫЕ ФОРМЫ НАСИЛИЯ В ОТНОШЕНИИ ЖЕНЩИН И НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ: ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ БОРЬБЫ СО СТАЛКИНГОМ И ОНЛАЙН-ГРУМИНГОМ

АННОТАЦИЯ

В данной статье проводится сравнительно-правовой анализ современных форм насилия в отношении женщин и несовершеннолетних сталкинга (незаконного преследования) и онлайн-груминга с точки зрения их правовой квалификации, тенденций распространения и механизмов противодействия. В статье научно обосновывается необходимость установления уголовной ответственности за сталкинг, кибersталкинг и онлайн-груминг в соответствии с задачами, определёнными Указом Президента Республики Узбекистан № УП-33 от 3 марта 2026 года. На основе изучения законодательного опыта и судебной практики США, Великобритании, Австралии, Канады и государств Европейского союза предложены оптимальные модели регулирования сталкинга и онлайн-груминга как самостоятельных составов преступления. Определены направления имплементации международных стандартов в национальную правовую систему с опорой на статью 34 Стамбульской конвенции и доклад Генерального секретаря ООН 2024 года. В заключении разработаны комплексные

предложения по внесению в Уголовный кодекс самостоятельных составов сталкинга и онлайн-груминга, разработке стандартов цифровых доказательств и совершенствованию системы охранных ордеров.

Ключевые слова: сталкинг, кибersталкинг, онлайн-груминг, современные формы насилия, уголовная ответственность, несовершеннолетние, цифровая среда, Стамбульская конвенция, насилие с применением технологий, состав преступления, mens rea, actus reus, защита потерпевших, международные стандарты, правовые пробелы.

MODERN FORMS OF VIOLENCE AGAINST WOMEN AND MINORS: LEGAL MECHANISMS FOR COMBATING STALKING AND ONLINE GROOMING

ABSTRACT

This article provides a comparative legal analysis of modern forms of violence against women and minors: stalking (unlawful persecution) and online grooming examining their legal characterization, trends in prevalence, and mechanisms for legal countermeasures. The article scientifically substantiates the necessity of establishing criminal liability for stalking, cyberstalking, and online grooming in line with the objectives set forth in Presidential Decree No. UP-33 of March 3, 2026 of the Republic of Uzbekistan. Drawing on the legislative experience and judicial practice of the United States, United Kingdom, Australia, Canada, and European Union member states, optimal models for regulating stalking and online grooming as independent criminal offences are proposed. Directions for implementing international standards into the national legal system are identified on the basis of Article 34 of the Istanbul Convention and the 2024 Report of the UN Secretary-General on technology-facilitated violence against women and girls. The article concludes with comprehensive proposals for introducing independent criminal provisions on stalking and online grooming into the Criminal Code, developing digital evidence standards, and strengthening the system of emergency protection orders.

Keywords: stalking, cyberstalking, online grooming, modern forms of violence, criminal liability, minors, digital environment, Istanbul Convention, technology-facilitated violence, elements of crime, mens rea, actus reus, victim protection, international standards, legal gaps.

Kirish

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi insonlar o‘rtasidagi muloqot shakllarini tubdan o‘zgartirib, ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Biroq bu o‘zgarishlar bir tomondan hayotni qulaylashtirsa, ikkinchi tomondan zo‘ravonlikning yangi, ilgari qonunchilikda alohida tartibga olinmagan shakllarining paydo bo‘lishiga zamin yaratmoqda. Ayollar va voyaga yetmaganlar ana shu yangi tahdidlardan eng ko‘p jarohat ko‘ruvchi ijtimoiy guruhlar bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 3-martdagi PF-33-son “Ayollar va bolalar huquqlarining himoyasini kuchaytirish hamda ularga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarining oldini olish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy-huquqiy choralar to‘g‘risida” farmoni bilan ayollar va bolalarni barcha ko‘rinishdagi tazyiq va zo‘ravonlik holatlaridan himoya qilish tizimini takomillashtirish maqsadida uch oy muddatda ayollar va bolalarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha xalqaro standartlar va ilg‘or xorijiy amaliyotni o‘rgangan holda shaxsni uning erkiga qarshi ravishda noqonuniy ta’qib qilish (stalking), Internet yoki ijtimoiy tarmoqlarda sodir etiladigan zo‘ravonlik (kiberzo‘ravonlik), voyaga yetmagan shaxslardan jinsiy foydalanish hamda shu maqsadda Internet orqali voyaga yetmagan shaxsning ishonchini

qozonish (onlayn gruming) uchun qonunchilikda javobgarlik belgilash yuzasidan asoslantirilgan takliflar kiritilishi ham belgilab berilgandi [1].

Mazkur hodisalarga qarshi kurashning huquqiy mexanizmlari masalasi bir qator sabablar tufayli dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Birinchidan, an'anaviy jinoiy va fuqarolik huquqi normalari raqamli muhitdagi zo'ravonlikni to'liq qamrab ola olmaydi. Bu esa qonunchilikdagi bo'shliqlarni yuzaga keltiradi. Ikkinchidan, o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan bu jinoyatlar anonimlik, chegara tushunchasi yo'qligi, dalillarning tez yo'q qilinishi an'anaviy tergov usullarining samaradorligini pasaytiradi. Uchinchidan, ayrim davlatlar milliy qonunchiligida stalking va onlayn gruming alohida jinoiy tarkib sifatida hali ham mustahkamlanmagan.

O'zbekiston Respublikasida ham bu yo'nalishda huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish zarurati tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda. Mamlakatda ayollar va bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan bir qator qonun hujjatlari xususan, Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi hamda "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar mavjud bo'lsa-da, stalking va onlayn grumingni bevosita tartibga soluvchi maxsus normalar etarli darajada rivojlanmagan.

Stalking ya'ni biror shaxsni uning xohish-irodasiga zid ravishda muntazam ta'qib qilish va kuzatish XX asrning so'nggi o'n yilliklarida alohida huquqiy hodisa sifatida tan olingan bo'lsa-da, raqamli muhitning kengayishi uni butunlay yangi o'lchamga olib chiqdi. Kiberstalking deb ataladigan onlayn ta'qib shakli bugungi kunda nafaqat shaxsiy xavfsizlikka, balki jabrlanuvchining ruhiy salomatligi, mehnat faoliyati va ijtimoiy hayotiga ham jiddiy zarar yetkazmoqda. Xalqaro statistikaga ko'ra, stalking qurbonlarining mutlaq ko'pchiligi ayollar, ta'qibchilarning esa asosiy qismi ular bilan yaqin yoki tanish bo'lgan erkaklar tashkil etadi.

Onlayn gruming esa alohida xavfli hodisa sifatida ko'zga tashlanmoqda. Dastlab voyaga yetmagan shaxsga nisbatan ishonch o'rnatish, so'ngra uni jinsiy yoki boshqa maqsadlarda ekspluatatsiya qilishga qaratilgan bu jarayon ijtimoiy tarmoqlar, o'yin platformalari va messenjerlar orqali tobora keng tarqalmoqda. UNICEF va Interpol ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, COVID-19 pandemiyasi davrida bolalar onlayn muhitda o'tkazadigan vaqt keskin ko'payishi bilan birga gruming holatlari ham sezilarli darajada o'sgan.

Shunday qilib, zo'ravonlikning yangi raqamli shakllarining tobora kengayib borishi qonun chiqaruvchidan nafaqat mavjud huquqiy normalarni mustahkamlashni, balki stalking, kiberstalking va onlayn gruming kabi hodisalar bo'yicha jinoiy kvalifikatsiya jarayonida yuzaga kelayotgan huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etishni ham taqozo etadi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, O'zbekistonda ayollar va voyaga yetmaganlarga nisbatan zo'ravonlikning zamonaviy shakllariga qarshi kurashish mexanizmlarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va shu orqali amaliyotdagi mavjud kamchiliklarga barham berish mazkur tadqiqotning nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham nihoyatda dolzarb ekanligini ko'rsatib turibdi.

Asosiy qism

Zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan birga zo'ravonlikning yangi shakllari paydo bo'lib, ularni an'anaviy huquqiy kategoriyalar doirasida to'liq ta'riflash tobora murakkablashmoqda. Stalking, kiberstalking va onlayn gruming ana shunday hodisalar jumlasiga kiradi. Ushbu tushunchalarni to'g'ri huquqiy jihatdan ta'riflash va bir-biridan farqlash maqola tadqiqotining metodologik asosini tashkil etadi.

Stalking ilmiy adabiyotda "bir shaxsning boshqasiga nisbatan qayta-qayta istalmagan muloqot yoki aloqalar o'rnatish orqali amalga oshiradigan doimiy ta'qib" sifatida ta'riflanadi.[1] Stalkingni boshqa xatti-harakatlardan ajratib turadigan asosiy belgilar bu harakatlarning takroriy yoki tizimli xarakteri, muayyan shaxsga qaratilganligi va jabrlanuvchi tomonidan

istalmagan ekanligi hisoblanadi. Bunday xatti-harakat jabrlanuvchi tomonidan bezovtalovchi, tahdidli, qo‘rqituvchi yoki iztirobli sifatida qabul qilinishi mumkin [2]. Kiberstalking esa stalkingning raqamli muhitdagi ko‘rinishi bo‘lib, u ijtimoiy tarmoqlar, elektron pochta, messenjerlar va boshqa onlayn platformalar orqali amalga oshiriladi. Texnologiya orqali ayollarga va qizlarga zo‘ravonlik (Technology Facilitated Violence Against Women and Girls) tushunchasi esa BMT tomonidan Texnologiyalar vositasida ayollar va qizlarga nisbatan zo‘ravonlik – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yoki boshqa raqamli vositalardan foydalangan holda sodir etiladigan, qo‘llab-quvvatlanadigan, kuchaytiriladigan yoki kengaytiriladigan har qanday harakat bo‘lib, u jismoniy, jinsiy, psixologik, ijtimoiy, siyosiy yoki iqtisodiy ziyon yetkazishga yoxud boshqa huquq va erkinliklarning buzilishiga olib keladi yoki olib kelishi mumkin. Garchi “raqamli zo‘ravonlik” yoki “onlayn zo‘ravonlik” kabi boshqa atamalar keng qo‘llanilsa-da, “texnologiyalar vositasida ayollar va qizlarga nisbatan zo‘ravonlik” atamasi texnologiya ham onlayn, ham oflayn shaklda qanday qilib zarar keltirishi mumkinligini yaxshiroq aks ettiradi [3].

Onlayn gruming tushunchasi esa o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bolaga nisbatan grumingning asosiy mohiyati shundaki, voyaga yetmagan shaxs (18 yoshgacha) bilan kattalar o‘rtasida barqaror va ishonchli munosabat o‘rnatib, kelajakda mazkur voyaga yetmagan shaxsga nisbatan jinsiy tajovuz qilish niyat qilinadi. Bu bevosita jismoniy aloqa orqali yoki voyaga yetmaganlarni pornografiyaga kiritish kabi boshqa vositalar orqali amalga oshirilishi mumkin [4].

So‘nggi yigirma yil ichida voyaga yetmaganlarning ijtimoiy xatti-harakatida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Bu o‘zgarishlar internet foydalanishining ortishi va Facebook, Instagram, Snapchat, onlayn suhbat xonalari, video o‘yinlar va boshqa media muloqot vositalari kabi ijtimoiy tarmoq platformalari bilan bog‘liq [5]. Bugungi kunda voyaga yetmaganlar yuzma-yuz muloqotga qaraganda ijtimoiy media ulanishlariga ko‘proq jalb bo‘lmoqda, bu esa ularni potentsial jinoyatchilar uchun qulay nishonga aylantirmoqda.

Jinoyatchilar uchun texnologiya voyaga yetmaganlar dunyosiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kirish imkonini berish orqali gruming jarayonini qulay va nisbatan oson qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, odamlar onlayn suhbat paytida odatda shaxsan ulashmaydilargan faktlarni erkin baham ko‘lishadi. Buyuk Britaniyada o‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, voyaga yetmaganlikka onlayn jinsiy tajovuz qilish uchun uni manipulyatsiya va ishontirish orqali 18 daqiqadan kamroq vaqt ketishi mumkin [6].

Stalking va onlayn grumingni huquqiy jihatdan ta’riflashda jinoyat tarkibining ikki asosiy elementi “actus reus” (tashqi harakat) va “mens rea” (jinoyatchi niyati) alohida o‘rin tutadi. Bu ikki element o‘rtasidagi munosabat mazkur jinoyatlarni isbotlashning eng murakkab tomonini tashkil etadi.

Grumingda shaxsni ayblash uchun jinoyat tarkibini (actus reus) va jinoyatchi niyatini (mens rea) tashkil etuvchi ma’lum mezonlar bajarilishi kerak. Jinoyatchi voyaga yetmaganlikka jinsiy tajovuz qilish niyatiga ega bo‘lishi kerak, bu esa isbotlashni qiyinlashtiradi. Gruming harakatlarini amalga oshirgan har qanday jinoyatchi o‘z harakatlari qonuniy va voyaga yetmaganlikka zararsiz ekanligini da’vo qilishi mumkin [7].

Amerika Qo‘shma Shtatlarining federal qonunchiligida gruming jinoyatining yuridik xususiyati “United States v. Gonyer” ishida aniq ko‘rsatilgan. Ushbu ishda sud jinoyatchi o‘n besh yoshli jabrlanuvchi bilan do‘stlashgani, unga sigaret, poyabzal, kiyim sotib bergani, u bilan do‘konlarga borgani, pornografik filmlar ko‘rsatgani va taxminan bir yil davomida uni grooming qilgani haqida qayd etgan. Sud ushbu grooming jarayonini jismoniy tajovuzdan oldingi alohida jinoyat sifatida baholagan [8].

Stalkingda esa harakat takrorlanganda va jabrlanuvchi bu harakatni istamagan taqdirdagina jinoyat tarkibi yuzaga keladi. Shu bilan birga, bir qancha davlatlarning qonunchiligida jabrlanuvchida qo‘rquv yoki hayajon yuzaga kelganligi ham zaruriy shart sifatida belgilangan, bu esa isbotlash jarayonini yanada murakkablashtiradi. Ko‘pchilik uchun bu shunchaki "oshiqona intilish" yoki "haddan tashqari qiziqish" bo‘lib ko‘rinsa-da, huquqiy va siyosiy nuqtayi nazardan masalaga chuqurroq qarash lozim. Stalking – bu shunchaki bir marta yozilgan xabar yoki ko‘chadagi tasodifiy uchrashuv emas. Bu tizimli, uzoq muddatli va eng asosiysi – istalmagan kuzatuvdir. Bizning jamiyatda ko‘pincha shaxsiy hudud (privacy) tushunchasi hali ham “umumiy” tushunchalar soyasida qolib ketmoqda. Stalkerning harakatlari qurbonda doimiy qo‘rquv va xavotir uyg‘otadi, bu esa insonning eng fundamental huquqlaridan biri – shaxsiy daxlsizlik huquqining to‘g‘ridan-to‘g‘ri buzilishidir. Rivojlangan davlatlar (AQSH, Buyuk Britaniya, Yevropa Ittifoqi) qonunchiligida stalking uchun alohida jinoiy javobgarlik belgilangan. Bizda esa bu harakatlar ko‘pincha “mayda bezorilik” yoki “haqorat qilish” kabi umumiy moddalar doirasida ko‘riladi. Lekin masalaning siyosiy-ijtimoiy jihati yanada og‘riqli. Birinchidan, stalking ko‘p hollarda og‘irroq jinoyatlarning (zo‘ravonlik, qotillik) “prelyudiyasi” bo‘lib xizmat qiladi. Ikkinchidan, raqamli makonda (kiberstalking) shaxsni ta’qib qilish orqali uni ijtimoiy passivlikka majburlar, ya’ni so‘z va fikr erkinligini bilvosita bo‘g‘ish quroliga aylanadi. Huquqiy normalarimizda "ta’qib qilish" tushunchasining aniq filtrlanmagani tajovuzkorga “men shunchaki gaplashmoqchi edim” degan bahona bilan javobgarlikdan qochish imkonini beradi. O‘zbekistonda xotin-qizlar va bolalar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha so‘nggi islohotlar fonida stalking uchun alohida ma’muriy va jinoiy javobgarlik kiritilishi – vaqt masalasi. Faqatgina “shaxsiy hayot daxlsizligi” moddasini kengaytirish yetarli emas, stalkingning elementlarini (tizimlilik, ruhiy bosim, istalmagan muloqot) o‘z ichiga olgan maxsus norma zarur. Texnologiyalar rivojlangani sari, stalkerlarning ko‘lami kengayib, himoyasiz qurbonlar soni ortib boraveradi.

Stalking va onlayn grumingga qarshi kurashning xalqaro-huquqiy asosini bir qancha xalqaro va mintaqaviy hujjatlar tashkil etadi. Ushbu hujjatlar milliy qonunchilikni takomillashtirish uchun minimal standartlarni belgilab beradi. Birinchi navbatda, 1989-yilgi BMT Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyani qayd etish lozim. Ushbu konvensiya bolalarni “jinsiy ekspluatatsiya va jinsiy zo‘ravonlikning barcha shakllaridan” himoya qilish majburiyatini belgilab berad [9]. Keyingi hujjat 2013-yilda kuchga kirgan Yevropa Kengashining ayollarga nisbatan zo‘ravonlik va maishiy zo‘ravonlikni oldini olish va ularga qarshi kurash to‘g‘risidagi konvensiyasi (Istanbul konventsiyasi) muhim ahamiyat kasb etadi. Bu konvensiya ayollarga nisbatan zo‘ravonlikni jinsga asoslangan zo‘ravonlik shakli sifatida maxsus ko‘rib chiqqan birinchi Yevropa mintaqaviy inson huquqlari hujjati bo‘ldi [10]. Shuningdek, BMT Bosh kotibining 2024-yilgi “Texnologiya orqali ayollarga va qizlarga zo‘ravonlik” nomli hisoboti zamonaviy muammolarni qamrab oladi. Ushbu hujjatda har uch ayoldan biri umri davomida kamida bir marta jismoniy yoki jinsiy zo‘ravonlikka duchor bo‘lishi, so‘nggi 12 oy ichida 300 million bola onlayn jinsiy ekspluatatsiyadan jabrlanishi va TF VAWG tarqalishining 16 foizdan 58 foizgacha ekanligi qayd etilgan [11].

AQSh federal qonunchiligida bola grumingiga qarshi kurash 2006-yil dekabrida qabul qilingan va “18 U.S. Code, 2251 - modda Sexual exploitation of children” moddasi bilan malakalanadi [12]. Mazkur qonun bo‘yicha gruming voyaga yetmaganlikka nisbatan jinoyatning alohida tarkibi sifatida taniladi va kamida 15 yildan 30 yilgacha qamoq jazosi bilan jazolash nazarda tutiladi. Federal qonunchilikka ko‘ra, voyaga yetmaganlarni gruming qilish va ularni ekspluatatsiya qilish harakati pochta yuborish, shaxsan uchrashuvlar va shaxs bilan bog‘lanishning boshqa o‘xshash usullari kabi har qanday muloqot shakli sifatida tavsiflanadi.

Shtat sudlari amaliyotida voyaga yetmaganga sovg‘alar sotib berish, ma’lumot almashish, ijtimoiy media ulanishlarini o‘rnatish, vizual va onlayn uchrashuvlar kabi harakatlar ham jinoyat tarkibi sifatida baholanmoqda [13]. Shu tariqa AQSh tajribasi xorijiy qonun chiqaruvchilar uchun namunaviy manba bo‘lib xizmat qildi.

Buyuk Britaniyada bola grumingiga nisbatan jinoiy javobgarlik 2003-yilgi Jinsiy jinoyatlar to‘g‘risidagi qonunning (Sex Offences Act 2003) 15-bo‘limi orqali belgilangan. Ushbu norma voyaga yetmagan shaxs bilan jinsiy tajovuz qilish maqsadida uchrashuv uyushtirmoqchi bo‘lgan har qanday jinoyatchi uchun kamida olti oy, og‘irroq hollarda o‘n yilgacha qamoq jazosini nazarda tutadi. Bundan tashqari, qonun internet yoki ijtimoiy media orqali smartfonlar, suhbat xonalari yoki boshqa aloqa vositalari orqali amalga oshiriladigan, shu jumladan gruming jarayoni davomida jinoyatchi Buyuk Britaniyada joylashmagan holatlardagi xalqaro jinoyatlarga ham nisbatan qo‘llaniladi [14].

Stalking sohasida esa Buyuk Britaniyada avval 1997-yilgi ta’qibdan himoya qilish to‘g‘risidagi qonun (Protection from Harassment Act) amalda bo‘lgan. Ammo amaliyotda stalking qurbonlari o‘z muammolari jinoiy yurisdiksiya tizimi tomonidan jiddiy qabul qilinmayotganidan norozi bo‘lganlaridan so‘ng, 2012 yilda Angliya va Uelsda maxsus stalking jinoyati kiritildi. Yangi jinoyat qurbonda zo‘ravonlik qo‘rquvi yuzaga keltirmagan, lekin jiddiy hayajon yoki tashvish tug‘dirganda ham jinoyatchilarni jinoiy javobgarlikka tortish imkonini beradi va ko‘proq himoya beradi [15].

Avstraliya “Bolalar huquqlari konvensiyasi”ga a’zo davlat sifatida bolalarni “jinsiy ekspluatatsiya va jinsiy zo‘ravonlikning barcha shakllaridan” himoya qilish majburiyatini o‘z zimmasiga olgan. 2007-yil dekabrida Avstraliya hukumati “Crimes Amendment” qonunida stalkingga qarshi normalarni mustahkamlagan. Ushbu qonun jabrlanuvchining yoshiga qarab jazo darajasini belgilaydi: 14 yoshgacha bo‘lgan bolaga nisbatan gruming uchun 12 yilgacha, 16 yoshgacha bo‘lgan bolaga nisbatan esa 10 yilgacha qamoq jazosi nazarda tutilgan [16].

Kanada Jinoiy kodeksining 172.1(1)-moddasi kompyuter yoki boshqa telekomunikatsiya vositalaridan foydalanib bolani vasvasaga solish va jinoyatga olib kelishi mumkin bo‘lgan holatlarda qo‘llaniladi. Kanada qonunchiligi AQSh, Avstraliya va Buyuk Britaniya qonunchiligiga qaraganda kengroq ko‘lamni qamrab oladi u faqat jinsiy jinoyatlar bilan emas, balki bolalarga nisbatan jinoyatlarning keng qamrovini o‘z ichiga oladi. Qonun 2002-yilda dastlab qabul qilingan va keyinchalik bir necha bor o‘zgartirilgan [17]. «R. v. Legare» ishida Kanada Oliy sudi kompyuter orqali bolani vasvasaga solish jinoyatini ko‘rib chiqqan. Mazkur ishda ayblanuvchi 12 yoshli qiz bilan yopiq onlayn suhbat xonasida muloqot boshlab, suhbatni elektron pochta va telefon orqali davom ettirgan; ularning muloqoti jinsiy xarakter kasb etgan [18]. Ish Kanada sudlarida stalkingga qarshi kurashda raqamli muhitga xos muammolarni yaqqol namoyish etdi.

Yevropa Ittifoqida stalkingni qonuniy jihatdan tartibga olish masalasiga dastlab qarshilik ko‘rsatilgan bo‘lib, YI davlatlarining ko‘pchiligi uzoq vaqt davomida maxsus milliy stalkingga qarshi qonunlarga ega bo‘lmagan. Asosiy sabab stalking ijtimoiy muammo sifatida tan olinmagan, ba’zi huquqshunos va huquq faylasuflari kriminalizatsiyaga qarshi chiqqan, davlatlar umumiy normalar yetarli deb hisoblagan. Biroq Istanbul konvensiyasi kuchga kirgach, ahvol keskin o‘zgardi. 2024-yil yanvar holatiga ko‘ra Yevropa Ittifoqining barcha a’zo davlatlari konvensiyani imzolagan bo‘lib, ulardan 22 tasi uni ratifikatsiya qilgan. Bundan tashqari, 2023-yil 28-iyunda Yevropa Ittifoqining o‘zi ham Istanbul konvensiyasini ratifikatsiya qilib, uni 1-oktabr 2023-yildan kuchga kiritdi. Konvensiya ta’sirida ko‘plab davlatlarda stalkingni jinoiylashtirish, majburiy nikoh va boshqa zo‘ravonlik shakllariga qarshi yangi jinoiy tarkiblar joriy etildi. Council of Europe Natijada Istanbul konvensiyasi nafaqat Yevropa, balki

butun dunyo bo‘ylab ayollar va voyaga yetmaganlarni himoya qilishda eng muhim xalqaro-huquqiy standart sifatida mustahkam o‘rin egalladi.

Shu bilan birga, Yevropa davlatlarining stalking ta’riflarida bir qator muammoli tendensiyalar ham kuzatilmoqda. Birinchidan, ko‘plab yangi qonunlar jabrlanuvchida qo‘rquv yoki hayajon yuzaga kelganligi talabini o‘z ichiga oladi bu esa shikoyat berishdan oldin ma’lum darajadagi ruhiy ta’sirni isbotlash zaruriyatini tug‘diradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, 1430 potentsial stalking qurbonidan faqat 36% subyektiv qo‘rquv his etganini ma’lum qilgan [20]. Ikkinchidan, ayrim davlatlar (Ruminiya, Ispaniya, Avstriya, Sloveniya, Chexiya) qonunchiligida stalking taktikalarining cheklangan ro‘yxati berilgan bo‘lib, bu yangi texnologiyalarga oid harakatlarni qamrab olmaslik xavfini tug‘diradi.

Zamonaviy xalqaro statistika stalking va onlayn grumingning qanchalik keng tarqalganligini aniq ko‘rsatib bermoqda. BMT Bosh kotibining 2024-yilgi hisobotiga ko‘ra, har uch ayoldan biri umri davomida kamida bir marta jismoniy yoki jinsiy zo‘ravonlikka duchor bo‘ladi. Texnologik vositalar bilan sodir etiladigan zo‘ravonlik holatlarining tarqalishi mintaqaga va o‘lchov metodologiyasiga qarab 16 foizdan 58 foizgacha o‘zgarib turadi. Voyaga yetmaganlar alohida xavf ostida turadi. So‘nggi 12 oy ichida 300 million bola onlayn jinsiy ekspluatatsiya va zo‘ravonlikdan jabrlanganlar. Ayol jurnalistlarning 73 foizi onlayn zo‘ravonlikni boshidan kechirganini bildirdi.

AQShda o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, voyaga yetmaganlar internetda kuniga taxminan yetti yarim soat vaqt o‘tkazadi [21].Bu holat ularni potentsial zo‘ravonlar uchun qulay nishon qiladi. Aynan shu sababli stalking va grumingga qarshi qonunchilik nafaqat jismoniy, balki raqamli muhitni ham qamrab olishi zarur.

Stalking va onlayn gruming jinoyatlarini sud jarayonida isbotlash bir qator ob’ektiv muammolar bilan bog‘liq. Birinchidan, grumingda niyatni (mens rea) isbotlash nihoyatda murakkab, jinoyat tarkibini hosil qiluvchi harakatlarning ko‘pchiligi (sovg‘a berish, muloqot qilish, vaqt o‘tkazish) o‘z-o‘zicha qonuniy va zararsiz. Jinoyatchi ana shu normativlik pardasi ortiga yashirinadi [22].

Ikkinchidan, raqamli dalillarning tez yo‘q qilinishi tergov jarayonini qiyinlashtiradi. Jinoyatchilar ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalarni, fotosuratlarni va aloqa tarixini o‘chirib tashlaydi. Uchinchidan, anonimlik va chegara tushunchasining yo‘qligi jinoyatchi boshqa mamlakatda joylashgan bo‘lishi va hamma narsani turli psevdonimlar ostida amalga oshirishi mumkin. Jabrlanuvchilar nuqtai nazaridan esa stalking va grumingning o‘ziga xos xususiyati shuki, ko‘plab jabrlanuvchilar o‘zlari qurbonga aylanganliklari haqida bilmaydi. Ayniqsa grumingda bola ko‘pincha jinoyatchini “sevib qolganiga” ishonadi va “munosabat” maxfiy bo‘lib qolishini istaydi. Bu esa jinoyat haqida xabar berish ehtimolini keskin kamaytiradi [26].

O‘zbekiston Respublikasida ayollar va bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan bir qator qonun hujjatlari mavjud. 2019-yilda qabul qilingan “Xotin-qizlarni ta’qib qilish va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun bu yo‘nalishda muhim qadam bo‘ldi. Mazkur qonun oilaviy zo‘ravonlik, jismoniy ta’qib va psixologik bosimning turli shakllarini tartibga oladi. Bundan tashqari, “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun ham voyaga yetmaganlarni himoya qilishga qaratilgan muhim hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida ham ayollarga va bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning ba’zi shakllarini qamrab oluvchi normalar mavjud. Xususan, O‘ldirish yoki zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish (112-modda), Shaxsiy hayot daxlsizligini buzish (141^1-modda), O‘n olti yoshga to‘lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish (128-modda) va jinsiy zo‘ravonlik (118-119-moddalar) kabi normalar mazkur jinoyatlarga qarshi kurashda qo‘llaniladigan asosiy

huquqiy vositalar hisoblanadi. Shu bilan birga, O‘zbekiston 1994-yilda BMT “Bolalar huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiyasini va 1995-yilda BMT “Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini tugatish to‘g‘risida”gi konvensiyasini ratifikatsiya qilgan. Bu xalqaro majburiyatlar milliy qonunchilikni rivojlantirish uchun muhim asos yaratadi.

O‘zbekiston qonunchiligini xalqaro standartlar bilan qiyosiy tahlil qilganda, bir qancha muhim huquqiy bo‘shliqlar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Eng muhimi shuki, stalking va kiberstalking O‘zbekiston Jinoiy kodeksida alohida, mustaqil jinoyat tarkibi sifatida belgilanmagan. Bu esa ta’qib harakatlarini har safar mavjud umumiy normalar (qo‘rqitish, shaxsiy hayotga tajovuz va h.k.) doirasida kvalifikatsiya qilishni zarur qiladi, bu esa ko‘pincha jinoyatchilarning haqiqiy jazolanmasligiga olib keladi.

Ikkinchi muhim bo‘shliq onlayn grumingni bevosita tartibga soluvchi maxsus normaning yo‘qligi. Voyaga yetmaganlarni onlayn muhitda manipulyatsiya qilish va ishonch o‘rnatib, keyinchalik jinsiy yoki boshqa maqsadlarda ekspluatatsiya qilish harakati hozirgi qonunchilikda to‘liq qamrab olinmagan. Yevropa va boshqa rivojlangan davlatlar tajribasi ko‘rsatadiki, bu soha alohida, aniq belgilangan jinoiy normani talab etadi.

Uchinchi muammo raqamli dalillarni yig‘ish, saqlash va sud jarayonida taqdim etish bilan bog‘liq huquqiy mexanizmlarning etarli darajada rivojlanmaganligi. Elektron pochta yozishmalari, ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlar va boshqa raqamli izlarni sud dalili sifatida tan olish va ularning qonuniyligi masalalari etarli darajada tartibga olinmagan.

To‘rtinchi bo‘shliq jabrlanuvchilarni himoya qiluvchi tezkor chora-tadbirlar tizimining zaifligi. Yevropa davlatlarida keng qo‘llaniladigan “taqiqlov orderlari” (restraining orders) instituti O‘zbekiston qonunchiligida yetarli darajada rivojlanmagan. Bunday orderlar stalking qurbonini darhol himoya qilish va jinoyatchining yaqinlashishini oldini olish uchun zarur.

O‘zbekiston qonunchiligini xalqaro standartlarga moslashtirish uchun quyidagi yo‘nalishlarni amalga oshirish tavsiya etiladi.

Birinchi yo‘nalish Istanbul konventsiyasiga qo‘shilish yoki uning standartlarini milliy qonunchilikka to‘liq joriy etish. Konventsiyaning 34-moddasi stalkingni jinoiylashtirish talabini belgilab beradi va bu talab O‘zbekiston uchun ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Istanbul konventsiyasini ratifikatsiya qilish mamlakatimiz xalqaro majburiyatlarini yanada kuchaytirgan bo‘lar edi.

Ikkinchi yo‘nalish stalkingni mustaqil jinoiy tarkib sifatida O‘zbekiston Jinoiy kodeksiga kiritish. Bu norma ta’qibning takroriy va tizimli xarakterini, jabrlanuvchining irodasiga zid ekanligini va natijada yuzaga keladigan qo‘rquv yoki hayajonni o‘z ichiga olishi kerak. Bunda Yevropa davlatlari tajribasida aniqlangan eng yaxshi amaliyotlardan foydalanish masalan, yopiq ro‘yxatdan ko‘ra ochiq ro‘yxatni qabul qilish tavsiya etiladi.

Uchinchi yo‘nalish onlayn grumingga nisbatan maxsus norma ishlab chiqish. Mazkur norma voyaga yetmagan shaxs bilan ishonch o‘rnatish jarayonida jinsiy yoki boshqa zararli niyat mavjud bo‘lganda jinoyat tarkibini hosil qilishi kerak. AQSh, Buyuk Britaniya, Avstraliya va Kanada tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bu jinoyatda «actus reus» (tashqi harakatlar) va «mens rea» (niyat) elementlarini alohida belgilash zarur.

Stalking va onlayn gruming jinoyatlarini sud jarayonida isbotlash bir qator ob’ektiv muammolar bilan bog‘liq bo‘lib, bu muammolar ko‘pincha jinoyatchilarning jazolanmasligiga olib keladi.

Grumingni isbotlashdagi asosiy qiyinlik shundaki, jinoyat tarkibini hosil qiluvchi harakatlarning ko‘pchiligi o‘z-o‘zicha qonuniy va zararsiz ko‘rinadi. Sovg‘a berish, muloqot qilish, birgalikda vaqt o‘tkazish bularning barchasi normal munosabatlar doirasiga kiradi. Jinoyatchi ana shu normativlik pardasi ortiga yashirinadi [28]. Shu sababli AQSh sudlarida ham

gruming jinoyati ko‘pincha alohida mustaqil jinoyat sifatida emas, balki aggravating circumstance ya’ni asosiy jinsiy jinoyatning og‘irlashtiruvchi holati sifatida ko‘rib chiqiladi.

Stalkingda esa muammo boshqacha qonunlar jabrlanuvchida qo‘rquv yoki tashvish yuzaga kelganligi faktini isbotlashni talab qilganda, bu katta evidentiary burden ya’ni isbotlash yukini jabrlanuvchining yelkasiga yuklanadi. Ayniqsa ruhiy ta’sir isbotini talab qiladigan holatlarda bu nihoyatda murakkab. Germaniyada, masalan, prokuror stalkingning jabrlanuvchining hayot tarzini “jiddiy buzganligini” isbotlashi kerak; Polshada esa stalking “haqiqatda qo‘rquv” uyg‘otganligi yoki “tinchlikni muhim darajada buzganligi” ko‘rsatilishi zarur .

Stalking va grumingning o‘ziga xos xususiyati shuki, ko‘plab jabrlanuvchilar o‘zlari qurbonga aylanganliklari haqida bilmaydi yoki bu haqda xabar berishga tayyor emas. Ayniqsa grumingda bola ko‘pincha jinoyatchini sevib qolganiga ishonadi va munosabatlarning maxfiy bo‘lib qolishini istaydi. Jinoyatchi esa jabrlanuvchini onasi-otasi va yaqinlaridan ajratib qo‘yib, faqat o‘ziga bog‘liq qiladi.

Ijtimoiy stigma ham muhim to‘siq hisoblanadi. Ko‘plab stalking va gruming qurbonlari jamoat oldida noqulay bo‘lishidan, o‘z tajribalarini oshkor qilganda ishonilmasligidan yoki jinoyatchining ta’siri ostida qolishdan qo‘rqib, shikoyat berishdan bosh tortadi. Gruming qurbonlari haqidagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, jabrlanuvchilar ko‘pincha o‘zlarini aybdor his etadi “o‘zim sabab bo‘lib qoldim” kabi noto‘g‘ri tushunchalar keng tarqalgan.

Bundan tashqari, onlayn grumingda voyaga yetmaganlar ko‘pincha ota-onalaridan yashiradi chunki jinoyatchi ularga doimiy ravishda “bu bizning sirimiz” deb uqtiradi. Sun’iy intellekt va deepfake texnologiyalaridan foydalanib tayyorlangan materiallar esa jabrlanuvchini yanada qo‘rqitish va jim qoldirishga xizmat qilmoqda.

BMT Bosh kotibining 2024-yilgi hisobotida davlatlarga quyidagi chora-tadbirlarni ko‘rish tavsiya qilinadi: raqamli jihatdan manipulyatsiya qilingan oshkora tasvirlar yoki videolarni ishlab chiqarish va ulashishni aniq jinoiylashtirish; TF VAWG ning barcha shakllarini jinoiylashtirish va taqiqlash hamda jinoyatlarni samarali tekshirish va jinoiy ta’qib qilish bo‘yicha huquqni muhofaza qilish organlarining salohiyatini mustahkamlash zarur.

Xulosa

Ushbu maqolada stalking va onlayn grumingning nazariy asoslari, xalqaro huquqiy standartlar, xorijiy davlatlar tajribasi, O‘zbekiston qonunchiligidagi mavjud holat va takomillashtirish yo‘nalishlari keng qamrovli tahlil qilindi.Tahlil natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelish mumkin.

Birinchidan, stalking va onlayn gruming ayollar va voyaga yetmaganlar uchun jiddiy va o‘sib borayotgan tahdidni ifodalaydi. Global statistika shuni ko‘rsatadiki, har uch ayoldan biri umri davomida zo‘ravonlikka duchor bo‘ladi, so‘nggi 12 oyda esa 300 million bola onlayn jinsiy ekspluatatsiyadan jabrlanmoqda. Sun’iy intellekt va deepfake texnologiyalarining rivojlanishi bu tahdidlarni yanada kuchaytirmoqda.

Ikkinchidan, xalqaro huquqiy standartlar Istanbul konventsiyasi, BMT Bolalar huquqlari konventsiyasi va BMT Bosh kotibining 2024-yilgi hisoboti mazkur hodisalarga qarshi kurashning minimal talablarini aniq belgilab bergan. Yevropa Ittifoqida Istanbul konventsiyasi ta’sirida maxsus stalkingga qarshi qonunga ega davlatlar soni olti yil ichida 10 dan 21 ga yetdi. Bu esa xalqaro majburiyatlarning milliy qonunchilikni rivojlantirishdagi kuchli katalizator bo‘lishini yaqqol ko‘rsatadi.

Uchinchidan, AQSh, Buyuk Britaniya, Avstraliya va Kanada tajribasi shuni ko‘rsatadiki, samarali qonunchilik stalking va grumingni mustaqil jinoiy tarkib sifatida belgilashi, raqamli muhitdagi harakatlarni ham qamrab olishi va xalqaro jinoyatlarga nisbatan ham qo‘llanila olishi kerak.

To‘rtinchidan, O‘zbekiston qonunchiligida stalking va onlayn grumingni tartibga soluvchi maxsus normalar etarli darajada rivojlanmagan. Stalkingni mustaqil jinoiy tarkib sifatida belgilash, onlayn grumingga qarshi maxsus norma kiritish, raqamli dalillar bo‘yicha standartlar ishlab chiqish va tezkor himoya orderlari tizimini takomillashtirish bularning barchasi O‘zbekiston huquq tizimini xalqaro andozalarga yaqinlashtirish uchun zarur muhim qadamlardir.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, qonunchilik islohoti yetarli emas. Huquqni muhofaza qilish organlarining salohiyatini oshirish, jabrlanuvchilarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish, jamiyatda xabardorlikni oshirish va texnologiya kompaniyalari bilan samarali hamkorlik o‘rnatish bular ham bir tizim sifatida ishlashi kerak. Faqat kompleks yondashuv orqaligina ayollar va voyaga yetmaganlarni zo‘ravonlikning zamonaviy shakllaridan to‘liq himoya qilish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ayollar va bolalar huquqlarining himoyasini kuchaytirish hamda ularga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarining oldini olish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy-huquqiy choralar to‘g‘risida”gi 03.03.2026-yildagi PF-33-son Farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.03.2026-y.
2. Mullen, P.E., Pathe, M., & Purcell, R. (2001). Stalking: New constructions of human behaviour. *Australian and New Zealand Journal of Psychiatry*, 35, 9–16. URL: https://doi.org/10.1046/j.1440-1614.2001.00849.x
3. Van der Aa, S. (2018). New Trends in the Criminalization of Stalking in the EU Member States. *European Journal on Criminal Policy and Research*, 24, 315–333. URL: https://doi.org/10.1007/s10610-017-9359-9
4. UN Secretary-General Report (2024). Intensification of Efforts to Eliminate All Forms of Violence against Women and Girls: Technology-Facilitated Violence against Women and Girls. UN Doc. A/79/500. URL: https://www.unwomen.org/sites/default/files/2024-10/a-79-500-sg-report-ending-violence-against-women-and-girls-2024-en.pdf
5. Ezioni, L. (2020). The Crime of Grooming. *Child and Family Law Journal*, Vol. 8, Iss. 1, Article 1. URL: https://lawpublications.barry.edu/cflj/vol8/iss1/1
6. International Centre for Missing & Exploited Children (2017). *Online Grooming of Children for Sexual Purposes: Model Legislation & Global Review*. URL: https://www.icmec.org/wp-content/uploads/2017/09/Online-Grooming-of-Children_ICMEC_Aug-2017.pdf
7. Finkelhor, D., Mitchell, K.J. & Wolak, J. (2000). *Online Victimization: A Report on the Nation’s Youth*. National Center for Missing and Exploited Children. URL: https://www.unh.edu/ccrc/pdf/jvq/CV38.pdf
8. *United States v. Gonyer*, 761 F.3d 157 (1st Cir. 2014). URL: https://casetext.com/case/united-states-v-gonyer
9. Convention on the Rights of the Child, 20 Nov. 1989, 1577 U.N.T.S. 3. URL: https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/convention-rights-child
11. Council of Europe Convention on Preventing and Combating Violence against Women and Domestic Violence (Istanbul Convention), CETS No. 210, 2011. URL: https://www.coe.int/en/web/conventions/full-list/conventions/treaty/210
12. 18 U.S.C. § 2251 — Sexual Exploitation of Children (2006). URL: https://uscode.house.gov/view.xhtml?req=granuleid:USC-prelim-title18-section2251
13. Pollack, D. & MacIver, A. (2015). Understanding Sexual Grooming in Child Abuse Cases. *ABA Child Law Practice Today*, 34, 161. URL:

https://www.americanbar.org/groups/public_interest/child_law/resources/child_law_practiceonline/child_law_practice/vol-34/november-2015/understanding-sexual-grooming-in-child-abuse-cases/
14. Sexual Offences Act 2003, Section 15 (United Kingdom). URL: https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2003/42/section/15
15. Protection from Harassment Act 1997; Protection of Freedoms Act 2012, Articles 2A and 4A (England and Wales). URL: https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1997/40/contents
16. Crimes Act 2007 (N.S.W.), s 66EB(3) (Australia). URL: https://legislation.nsw.gov.au/view/html/inforce/current/act-1900-040#sec.66EB
17. Criminal Code of Canada, R.S.C. 1985, c. C-46, s. 172.1, as amended. URL: https://laws-lois.justice.gc.ca/eng/acts/C-46/section-172.1.html
18. *R. v. Legare*, [2009] 3 S.C.R. 551 (Canada). URL: https://scc-csc.lexum.com/scc-csc/scc-csc/en/item/7823/index.do
19. Owens, J.G. (2016). Why definitions matter: Stalking victimization in the United States. Journal of Interpersonal Violence, 31(12), 2196-2226.
20. Rideout, V.J., Foehr, U.G. & Roberts, D.F. (2010). *Generation M2: Media in the Lives of 8- to 18-Year-Olds*. Kaiser Family Foundation. URL: https://www.kff.org/other/report/generation-m2-media-in-the-lives-of-8-to-18-year-olds/
21. Harrison, K. (2018). Time for change. *New Law Journal*, *168*(7785).